



MANIPULYATIV XULQNING YOSHGA OID PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Nosirova Zahroxon Nozimjon qizi.**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Rus filologiyasi fakulteti 1 - bosqich talabasi*

[nosirovazahroxon6@gmail.com](mailto:nosirovazahroxon6@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada manipulyatsiya haqida tushuncha, manipulyatsiyani tushunish yo'llari, manipulyatsiyaga oid psixologik tajribalar, manipulyatsiyaning ta'siri va oqibatlari, manipulyativ xulqning turli yosh guruhlarida qanday shakllarda namoyon bo'lishi va uning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bolalik, o'smirlik va kattalar davridagi manipulyatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari yoritilib, bu xatti-harakatlarning oldini olish yo'llari muhokama qilinadi. Shuningdek, manipulyatsiyaning insonlararo munosabatlarga ta'siri va undan himoyalaniş usullari ham ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Manipulyatsiya, Manipulyator, Manipulyatsiyalarni tushunish, Konformizm, Manipulyatsiyani payqash, Xulq - atvor, Bolalar xulqi, Yosh psixologiyasi, Manipulyatsiyalardan himoyalaniş, O'smirlik davri*

**Abstract:** *This article analyzes the concept of manipulation, ways to understand manipulation, psychological experiences related to manipulation, the impact and consequences of manipulation, the forms in which manipulative behavior manifests itself in different age groups, and its psychological characteristics. The specific features of manipulation in childhood, adolescence, and adulthood are highlighted, and ways to prevent these behaviors are discussed. The impact of manipulation on interpersonal relationships and methods of protection against it are also considered.*

**Keywords:** *Manipulation, Manipulator, Understanding manipulation, Conformism, Noticing manipulation, Behavior, Child behavior, Age psychology, Protection from manipulation, Adolescence*

**Аннотация:** *В статье анализируются понятие манипуляции, способы понимания манипуляции, психологические переживания, связанные с манипуляцией, эффекты и последствия манипуляции, формы проявления манипулятивного поведения в разных возрастных группах, его психологические особенности. Выделены специфические особенности манипуляции в детском, подростковом и взрослом возрасте, а также обсуждаются способы предотвращения такого поведения. В статье также рассматривается влияние манипуляции на межличностные отношения и способы защиты от нее.*

**Ключевые слова:** *Манипуляция, Манипулятор, Понимание манипуляций, Конформизм, Обнаружение манипуляции, Поведение, Поведение ребенка, Возрастная психология, Защита от манипуляций, Подростковый возраст*



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Shaxs psixologiyasi juda murakkab, uning muhim qismini xayolot olami tashkil qiladi. Darhaqiqat odam bir vaqtning o'zida ikki qarma-qarshi olamda yashaydi: real hayotda va hayolan tasavvurlar dunyosida. Ana shu, aynan shaxsning xayoliy dunyosiga tashqaridan osonlikcha ta'sir ko'rsatish mumkin. Aniqrog'i bu ta'sir doim yashirin xarakterga ega bo'lib, insonning o'zi buni payqamaydi. Bu jarayonni manipulyatsiya mexanizmi boshqaradi. Manipulyatsiya - bu insonning fikrlari, hissiyotlari va xulqiga, uning roziligisi z va u payqamagan holda ta'sir ko'rsatish san'ati. Manipulyatsiya insonlarning ongiga ta'sir ko'rsatish orqali ularga o'z manfaatlariga mos ravishda yo'l tutishga majburlashdir. Bu holat turli yosh guruhlarida har xil shakllarda namoyon bo'ladi va turli psixologik omillar bilan bog'liqdir. Ushbu maqolada manipulyativ xulq-atvorning yoshga oid psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Manipulyator sizni muayyan harakatlar yoki qarorlarga olib kelish uchun ulardan ustamonlik bilan foydalanadi.

Manipulyatsiyaning asosiy xususiyati uning yashirin amalga oshirilishida. O'z irodam bilan ish ko'ryapman, deb o'ylab, sizga kimdir ta'sir o'tkazayotganini hatto xayolingizga ham keltirmasligingiz mumkin. Aynan shunda asosiy xavf mujassam – manipulyatsiya sizni haqiqiy tanlov erkinligidan mosuvo qilib, uni mustaqil qaror illyuziyasi bilan almashtiradi. Manipulyatsiyaning muhim jihatlaridan biri shundaki, u orqali ob'yektning hatti-harakatlarini dasturlash mumkin. Manipulyatsiya psixologiyasi yaqindan ijtimoiy ta'sir va ishontirish bilan bog'liq. Manipulyatsiya bu ong ustidan hukmronlik o'rnatish bo'lib, unda inson ruhiyati, hatti-harakatlari va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatiladi. Manipulyator doim insonning aynan ruhiy dunyosini mo'ljalga oladi. Bunda manipulyatsiya obektiga shaxs sifatida qaralmaydi. Manipulyator uchun u shunchaki ta'sir ko'rsatishning obekti bo'ladi. Agar odam o'ziga qaratilgan murojaatlarning asl mohiyatini bilib tursa, yashirin maqsadlardan xabardor bo'lsa, bu holatga manipulyatsiya sifatida baho berib bo'lmaydi. Shunday ekan, manipulyatsiyaning maqsadlari fosh etilgan taqdirda, shu vaqtdan boshlab ta'sir ko'rsatishning manipulyativ xarakteri yo'qoladi. Manipulyator sizni muayyan harakatlar yoki qarorlarga olib kelish uchun ulardan ustamonlik bilan foydalanadi. Manipulyator – bu boshqa odamlarga o'zining asl niyatlarini yashirgan holda maqsadlariga erishish uchun boshqalarga ta'sir ko'rsatish maqsadida turli usullardan foydalanadigan inson. Manipulyatorlar hissiyotlarda mohirona o'ynaydi. Manipulyatorni tengqurlar, do'stlar va kattakar orasidan qanday payqaysiz? Bir qarashda, javobi oson: o'z hissiyotlaringizga ishonib. Agar kimdir sizni manipulyatsiya qilishga urinayotganini sezsangiz, demak, shunday bo'lyapti. Yodda tuting, manipulyatsiyalarga qarshi tura olish – amalda rivojlantirish mumkin bo'lgan ko'nikma.

Tushunish muhimki, manipulyativ xulq elementlari har kimda, ba'zan ongsiz ravishda namoyon bo'lishi mumkin. Biroq ba'zi kishilar manipulyatsiyadan tizimli va maqsadli foydalanadi. Bunday xulqning sabablari turlicha bo'lishi mumkin: shaxsiy ishonchsizlik va vaziyatni nazorat qilish istagida sog'lom muloqot ko'nikmalariga ega emaslikkacha.

Manipulyatsiyaga moyil insonlarning quyidagi tiplari mavjud:



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Qurbon. Doim noliydi va boshqalarda aybdorlik hissini uyg'otishga urinadi.

Zo'ravon. Maqsadlariga erishish uchun qo'rqitish va tazyiqlardan foydalanadi.

Tilyog'lamachi. Istagiga erishish uchun haddan tashqari ko'p maqtaydi.

Nazoratchi. Boshqa insonlar hayotining har bir jihatini boshqarishga, nazorat qilishga harakat qiladi.

Gazlayter. Reallikni qabul qilish qobiliyatida shubhalanishga undaydi.

Nega insonlar manipulyatsiya qiladi va manipulyatsiyaga uchraydi?

Insonlar boshqalarni turli sabablar tufayli manipulyatsiya qiladi. O'ziga past baho ko'pincha manipulyatorlarni o'z kamchiliklarini to'ldirish uchun boshqalarni boshqarishga undaydi. Ba'zilar manipulyatsiyadan atrofdagilar ustidan hokimiyat o'rnatish uchun foydalanadi. Shunday holatlar bo'ladiki, insonlar muloqot ko'nikmalariga ega bo'lmagani, o'z ehtiyojlarini sog'lom usulda ifoda etishni bilmaganliklari uchun manipulyatsiyaga murojaat qiladi.

Rad etilishdan qo'rqish ham yoqimsiz vaziyat yoki rad javobini chetlash usuliga aylangan manipulyativ xulq sababi bo'lishi mumkin. Faqat o'zini o'ylash ham o'z rolini bajaradi: ba'zilar o'z istaklariga erishish uchun boshqalarning hissiyotlarini inobatga olmay, manipulyatsiya qilishadi. Ba'zilar uchun manipulyatsiya odat tusiga kiradi, boshqalar bilan muloqotning odatiy usuli bo'lib qoladi. Yodda tutish muhimki, manipulyatsiya sabablarini anglash bunday xulqni oqlamaydi, biroq o'zini himoya qilish va sog'lom munosabatlarni qurishga yordam beradi.

Manipulyatsiyaga oid psixologik tajribalar. Insonlar qanday sabablar bilan manipulyatsiyaga murojaat etishini tushunish mashhur psixologik tajribalar natijalari bilan bog'liq. Manipulyativ xulq motivlari ijtimoiy psixologiya sohasidagi tajribalar natijalarida o'z aksini topadi.

Stenli Milgrem tajribasi. Psixolog Stenli Milgrem tomonidan 1960-yillarda o'tkazilgan mashhur tajriba avtoritetga bo'ysunishni tadqiq etgan. Eksperiment mohiyati shunda ediki, ishtirokchilarga ular jazoning o'qishga ta'siriga oid tadqiqotda ishtirok etayotganlari aytilgan. Ularning roli "o'quvchiga" (aslida aktyorga) har bir noto'g'ri javob uchun elektr razryad berishdan iborat edi. Har bir xato bilan razryad kuchi go'yoki kuchaygan va inson hayoti uchun xavfli darajaga yetgan. Tajriba o'tkazuvchi "o'quvchi" og'riqdan qichqirgan vaqtda ham tajriba davom etishini istagan. Hayratlanarlisi, 65% ishtirokchilar oshkora noqulaylikka qaramay, razryadning eng yuqori darajadigacha yetib borishdi.

Tajriba ko'rsatishicha, ishtirokchilar avtoritet kuchi manipulyatsiyasi ta'sirida ularning ma'naviy prinsiplariga zid harakatlarni bajarishmoqda. Bu ijtimoiy bosim va insonlarning garchi ular ishtirokchilarning etik me'yorlariga zid bo'lsa ham, buyruqlarga bo'ysunishga tayyorligini ko'rsatadi.

Filipp Zimbardoning qamoq tajribasi. Psixolog Filipp Zimbardo tomonidan 1971-yilda o'tkazilgan Stenford qamoqxona tajribasi insonlar manipulyatsiyaga oson uchrashi va singdirilgan ijtimoiy rollarni oson qabul qilishini ko'rsatdi. Tajriba davomida ko'ngilli talabalar soxta qamoq muhitida "qamoqqa olinganlar" va "qo'riqchilarga" bo'lingan. Buning





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



tajriba ekanligini bilsalar-da, ishtirokchilar tezda rollariga kirib ketishdi, e'tiborlisi, "qo'riqchilar" "mahbuslar"ga nisbatan zo'ravonlik va shafqatsizlik namoyish etib, "mahbuslar" esa depressiya va stress belgilarini namoyish qila boshladi. Tajriba ishtirokchilarga kutilmaganda kuchli psixologik ta'siri tufayli muddatidan oldin to'xtatilishga majbur bo'ldi. Bu tariba, vaziyat va ijtimoiy me'yorlar insonlarga, garchi ular oddiy ma'naviy tamoyillariga zid bo'lsa-da, ularga kuchli ta'sir etishini ko'rsatdi.

Guruhning individ mulohazalariga ta'siri. Solomon Ashning 1950-yillardagi klassik tadqiqoti mulohaza va konformizmga jamoaviy bosimni o'rgangan. Eksperiment ishtirokchisi yo'llangan aktyorlar guruhiga joylangan, avvaliga ular to'g'ri javoblarni aytishgan, keyin esa atayin noto'g'ri javoblarni tanlashgan. Ishtirokchi ochiq-oydin to'g'ri javobni ko'rsa ham, jamoa adashayotgan bo'lsa ham, aksar hollarda u ko'pchilik fikriga qo'shilgan. 37% ishtirokchi, guruh fikriga qo'shib, konformizm namoyon qildi. Konformizm – bu jamoaga moslashish istagi, bunda guruh uni qo'llashi yoki nizolardan qochish maqsadida inson qarashlari va xulqini o'zgartiradi. Aqsh tajribasi shuni ko'rsatdiki, kuchli ijtimoiy bosim insonni o'z fikrlarida shubhalanishga va ko'pchilik fikriga bo'ysunishga undaydi.

Uchinchi to'lqin" tajribasi. "Uchinchi to'lqin" tajribasi 1967-yilda tarix fani o'qituvchisi Ron Jonson tomonidan Kabberli maktabi, Palo-Altoda o'tkazilib, o'quvchilarga nemis xalqi natsist rejimini qanday ushlab turganini ko'rsatishni maqsad qilgan. Jons qat'iy tartibni joriy qilib, hatto qadri ushlab turish va murojaat talablarini belgilaydi va "Kuch tartibda" shiorini paydo qiladi. O'quvchilar bu qoidalarni tez qabul qilib, sinfda muhit o'zgaradi. Ikkinchi kuni "Kuch hamjamiyatda" degan shior paydo bo'lib, birdamlik hissi kuchayadi. Uchinchi kuni harakat "Uchinchi to'lqin" nomini oladi, va Jons a'zolik kartakarini tarqatadi. Ba'zi o'quvchilar qoidalarga amal qilmayotganlar ustidan chaqimchilik qila boshladi. To'rtinchi kuni harakat a'zolari 200 nafar o'quvchini tashkil etdi. Jons "Uchinchi to'lqin" milliy harakati mavjudligini e'lon qildi va yetakchi tanlanishini va'da qildi. Beshinchi kuni barcha o'quvchilarni yig'ib, Jons bularning bari fashizmni o'rganish bo'yicha tajriba bo'lganini aytib, natsist Germaniyasi haqida kino qo'yib berdi. O'quvchilar manipulyatsiyaga shunchalik oson uchraganlaridan hayratda edilar.

Tajriba insonlarni o'zgachalik hissini paydo qilib manipulyatsiya qilish osonligini va guruhga mansublik uchun o'zlarining axloq prinsiplaridan oson voz kechishlarini namoyish qildi. "Uchinchi to'lqin" konformizm va tanqidiy tafakkurning muhimligi haqida dars bo'ldi.

Bu tajribalar insonlar ijtimoiy bosim va manipulyatsiyaga oson uchrashini isbotlab berdi. Biroq bunday mexanizmlardan boxabarlik – ulardan himoyalalanish sari ilk qadamligini yodda tutish lozim.

Zamonaviy psixologiya fanida yosh inson psixik taraqqiyotidagi ko'plab muhim o'zgarishlarni determinatsiyalovchi omil ekanligini dalillar yetarlicha to'plangan. Psixik hayotning birorta tomoni ushbu omil ta'siridan xoli bo'lmay ko'p hollarda aynan u psixologik differentsiya omili sifatida gavdalanadi. Yosh omili shaxsda manipulyatsiyaga moyillik shakllanishida tutgan roli ham qator maxsus tadqiqotlarda tekshirilgan.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



A.V .Pogodina va A.D. Larina o‘smirlik davri davomida ( 6-sinf dan 9- sinfgacha ), bir tomondan, manipulyatsiyaga moyillikning dinamikasi, ikkinchi tomondan, o‘smirlikning o‘z sinfidagi ijtimoiy mavqei dinamikasini o‘rganib, kichik o‘smirlik davrida makiavellist o‘smirlarning sinfdagi sotsiometrik mavqei past bo‘lishini, biroq 9- sinfga kelib bunday o‘quvchilarning ijtimoiy mavqei yuqori darajaga yetishini aniqladilar. Tadqiqotchilar bu tafovutni kichik o‘smirlik davrida tengdoshlar bilan muloqot, yaqin munosabatlarning, o‘z - o‘zini axloqiy tarbiyalash ahamiyati ayniqsa yuqori bo‘lganda makiavellist shaxs uchun xos emotsional sovuqlik, nosamimiy munosabat , axloqiy me‘yorlarga befarqlik unga guruhda obro‘ olib bormasligidan deb biladi. Katta o‘smirlik davrida esa mualliflar fikricha, o‘smirlar makiavellist shaxsga xos tafakkur tanqidchanligi, emotsional barqarorlik, pragmatizm, o‘zini va boshqalarni xolis baholay olish kabi xususiyatlarning ahamiyatini yuqoriroq baholashi, qolaversa, o‘smirlarning bu davrda an’anaviy qadriyatlarni inkor etishga moyilligi ular o‘rtasida manipulyatsiyaga moyil bo‘lgan bolalarning mavqei ortishiga sabab bo‘ladi.

Aniqlangan bu qonuniyatlar, shubhasiz, manipulyatsiyani boshqa psixik hodisalar bilan aloqasuda ham yosh dinamikasi kuzatilishini isbotlaydi. Ammo mualliflar ,bizningcha, natijalar talqinida faqat o‘smirlikning ma’lum mikrobozichida bolalar jamoasida qanday shaxs sifatleri ko‘proq hurmatga sazovor bo‘lishiga e’tiborni qaratib bir yoqlamalikka yo‘l qo‘yganlar. Negaki, aniqlangan holatlarni o‘smirlik davrida umuman ijtimoiy mavqeyini belgilab beruvchi shaxs xususiyatlari rivojlanishi, ya’ni tengdoshlar tomonidan muayyan shaxs sifatida qanchalik qadrlana boshlanishi emas, balki shaxsiy obro‘ni oshirishiga xizmat qiluvchi xususiyatlar o‘zi aslida bu yosh davrida qanday taraqqiy etishi nuqtai nazaridan ham tushuntirish, ham tengdoshini idrok etuvchi o‘smirdagi, ham uning o‘zidagi o‘zgarishlarni qamrab oluvchi talqin modelini qo‘llash yanada samarali bo‘lardi deb hisoblaymiz.

Manipulyatorni tengqurlar, do‘stlar va kattakar orasidan qanday payqaysiz? Bir qarashda, javobi oson: o‘z hissiyotlaringizga ishoning. Agar kimdir sizni manipulyatsiya qilishga urinayitganini sezsangiz, demak, shunday bo‘lyapti. Yodda tuting, manipulyatsiyalarga qarshi tura olish – amalda rivojlantirish mumkin bo‘lgan ko‘nikma.

Manipulyatsiyalardan qanday himoyalaniish mumkin?

- Tanqidiy tafakkurni rivojlantiring. Axborotni va insonlar motivlarini tahlil qiling, barchasiga ishonib ketavermang.
- O‘zingizga ishonch va bahoni oshiring. O‘ziga bahosi yuqori bo‘lgan kishilar manipulyatsiyaga kamroq uchraydi.
- Aniq chegaralar o‘rnating. Kerak bo‘lganda "yo‘q" deyishni o‘rganing.
- Emotsional bosimga berilmang. Muloqotda xotirjamlik va ratsionallikni saqlang.
- Aniqlashtiruvchi savollar bering. Bular suhbatdoshning asl maqsadlarini ochib berishi mumkin.
- Qaror qabul qilishdan avval o‘ylab oling. Sizni shoshirishlari yoki bosim o‘tkazishlariga yo‘l qo‘ymang.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



- Intuitsiyangizga ishonung. Agar sizni manipulyatsiya qilayotganlarini sezsangiz, katta ehtimol bilan shunday.
- Yaqin kishilardan qo'llab-quvvatlash oling. Murakkab vaziyatlarni yaqin va ishonchli kishilar bilan muhokama qiling.
- Emotsional intellektni rivojlantiring. Bu o'zingiz va boshqalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa. Manipulyativ xulqning oldini olish uchun insonlarga mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va hissiyotlarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Ota-onalar va o'qituvchilar bolalar va o'smirlarga manipulyatsiyaga duch kelganda qanday munosabat bildirishni o'rgatishlari kerak. Bundan tashqari, o'zaro ishonch va ochiq muloqot muhitini yaratish ham manipulyatsiyaning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Manipulyativ xulq turli yosh guruhlarida har xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bolalik davrida u tabiiy va ongsiz bo'lsa, o'smirlilik va kattalar davrida yanada ongli va murakkab tus oladi. Insonlar manipulyatsiyaning ta'siridan qochish va boshqalar tomonidan boshqarilmaslik uchun psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirishlari lozim. Shu tariqa, manipulyativ xulqning salbiy ta'sirlarini kamaytirish va sog'lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish mumkin.

Umumiy ravishda, manipulyativ xulqning yosh xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar natijalarini tahlil etib, manipulyatsiyaga moyillik o'ziga xos barqaror individual - psixologik xususiyat bo'lishiga qaramay, uning rivojlanishida yosh dinamikasi kuzatilishi va ushbu sifat o'zining yuqori darajasiga o'spirinlik davrida yetishi haqida xulosa qilish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pedagogik psixologiya asoslari G'oziyev E.G'
- 2 Pedagogik psixologiya. X.I. Ibragimov
- 3 .Bul informaciyaliq-bilim aliw platformasi QR, Qirg'izstan Respublikasi, OZR, TR jaslaru ushun molsherlengen.
4. Беденко С.В. Исследование влияния манипулятивной направленности личности в общении на ее социометрический статус в группе // Вестн. Адыгейского гос. ун-та. 2005. № 1. - С. 199-200.
5. Каракулова О.В. Личностная обусловленность склонности к манипулированию окружающими людьми в юношеском возрасте: Дис. ... канд. психол. наук. Томск: Том. гос. ун-т, 2008.
6. Козачек О.В. Связь манипулятивной установки и самооотношения детей подросткового возраста: Дис. ... канд. психол. наук. Волгоград: ВГУ, 2005.
7. Ларина А.Д., Погодина А.В. Макиавеллизм и социометрический статус подростка в учебной группе // Психологическая наука и образование, 2007. № 5. С. 252-259,



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



8. Руслина А.О. Возрастные, половые и профессиональные различия в понимании манипуляции: Автореф. дис.... канд. психол. наук.- М.: МГУ, 2008.

